

## **“Oqibat” mahallasi bilan hamkorlik**

Barcha tuzilmalarning o’zaro hamjihatligi davlatimiz qudrati va manbaidir. Mahallaning ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorligi turli yo’sinda bo’layotgani e’tiborga molik. Institutimiz professor o’qituvchilari “Oqibat” mahallasiga bir necha bor tashrif buyurishganidan voqifsiz. Endi ularning institutimizga kelishi, institutdagi jarayonlar bilan tanishishi tabiiy hol.



Institut rektorining 2021-yil 10-maydagi “Institutga biriktirilagan mahallalarda manzilli ishlarni olib borish to’g’risida”gi 228 A/F-sonli buyrug’i ijrosini ta’minlash maqsadida “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakultetiga biriktirilgan “Oqibat” mahallasi faollari institutimizda tashkil etilgan A.Oripov muzeyiga tashrif buyurishdi. Muzeydagi eksponatlar bilan tanishish asnosida juda katta taassurotlarga ega bo’lishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**